

PAXTAOBOD TUMANI AGROSANOAT MAJMUALARI KO'RSATKICHLARI

Xabibullayeva Muslima Nurillo qizi, Sarikulov Mirkomil Olimovich

*Andijon davlat pedagogika instituti 1- bosqich talabasi, Andijon davlat
pedagogika instituti Biologiya va geografiya o`qitish metodikasi
kofedrasi o`qituvchisi.*

Andijon shahri Do`stlik ko`chasi 2-uy

Annotatsiya: Ushbu maqolada Andijon viloyatining Paxtabod tumani agrosanoat majmualari va uning rivojlanishi , rivojlanishining ahamiyati va aholini ish bilan ta'minlash hamda tumandagi imkoniyatlar va salohiyatlardan to'liq foydalanish haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Paxtaobod, agrosanoat majmuasi, kredit, melioratsiya, yengil sanoat, issiqxona xo'jaligi, qishloq xo'jaligi, intensiv, chorvachilik

INDICATORS OF AGRO-INDUSTRIAL COMPLEXES OF PAKHTABOD DISTRICT

Abstract: This article talks about the agro-industrial complexes of Pakhtabad district of Andijon region and its development ,the importance of development and employment of the population and the full use of opportunities and potentials in the district.

Key words: Pakhtabad, Agro-industrial complex, Credit, Reclamation, Light industry, Greenhouse economy, Agriculture, Intensive, Animal husbandry.

Asosiy qism: Paxtabod tumani Andijon viloyatining shimoliy sharqida joylashgan. Shimoliy va shimoli-sharqdan Qirg'iziston respublikasining Jalolobod viloyati, g'arbdan Izboskan tumani , janubdan Andijon tumani , sharqda (58 km masofada) Qirg'iziston Respublikasi va Jalaquduq tumanlari bilan chegaradosh. Paxtabod tumani viloyat markazi Andijon shahridan 24 km shimoliy-sharqda bo'lib, dengiz sathidan 300 metr balandlikda joylashgan.

Aholisi 208.7 ming kishi. Paxtabod tumanini Qoradaryo, Tentaksoy, Chirtaksoy, daryolari kesib o'tadi. Tuman markaziga 1975 yilda Paxtabod shahri maqomi berilgan. Umumiy yer maydoni 259.9 kv km ni tashkil etadi.

QISHLOQ XO'JALIGI-Paxtabodda qishloq xo'jaligi yaxshi rivojlanib kelmoqda. Asosan paxta, sholichilik, donli ekinlar, sabzavotlar ,mevalar va bog'dorchilik ancha yaxshi rivojlangan. Paxtabod tumanida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarilishi hamda ularni qayta ishlash bilan bog'liq agrosanoat majmualari rivojlanib bormoqda. Agrasanoat majmuasi(ASM)-bu qishloq xojaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish,qayta ishlash va taqsimlashni o'z ichiga olgan turli sohalardan iborat kopleks tizimdir. Agrosanoat majmuasining asosiy maqsadi - aholini sifatli oziq-ovqat va xalq iste'moli tovarlari bilan talab darajasida ta'minlashdan iborat. Paxtabod tumanida jami ekin yer maydoni 25 992 gektar ni tashkil etadi. Shundan:Sugoriladigan maydon 15 562 gektar; bosh turgan yer maydonlari 52.6 gektar (Qishloq xojaligi yer maydonlari -50 gektar ,sanoat yer maydonlari -2.6 gektar)ni tashkil etadi. Qishloq xojaligida yerlardan unumli foydalanish , yerlarini holatini yaxshilash, tuproqlarning unumdorligini oshirish uchun melioratsiya tadbirlari o'tkazilmoqda. Qishloq xojaligida paxtachilik negizida tumanda yengil sanoat korxonalari , jumladan , tekstil sanoati , to'qimachilik ishlab chiqarish va qayta ishlash korxonalari , shuningdek yengil sanoat sektori rivojlanmoqda. Yangi korxonalar ishga tushirilgan sari mahaliy aholi bandligi taminlanmoqda.Yengil sanoat asosan paxta sanoatiga tayangan bo'lib ,tumanda paxta tolasini qayta ishlash va toqimachilik maxsulotlari ishlab chiqarish rivojlangan . Yengil sanoatda paxta tolasidan tayyorlangan matolar , kiyim-kechak va boshqa paxtaga asoslangan mahsulotlar ishlab chiqariladi.Yengil sanoat rivojlanishi uchun paxta sanoati(dehqonchilik) rivojlantirish kerak . Dehqonchilik rivojlanishi uchun tumanda qulay tabiiy sharoit,tuproq va barqaror iqlim sharoiti mavjud . Bu imkoniyatlardan foydalangan holda tumanda paxtachilik bilan birga kartoshka, sabzavotlar, poliz, mevalar va rezavorlar yetishtirish rivojlanmoqda.2024-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 1733,1 mlrd. so'mni tashkil etadi.

Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda dehqon xo'jaliklarining salmogi yuqori bo'lmoqda, Jumaladan jami yetishtirilgan kartoshkaning 69,2%, sabzavotning 49,2%, poliz mahsulotlarining 23,6%, uzumning 85,7% va mevaning

52,5 % ular hissasiga to'g'ri keladi.2024-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan jami sabzavot 150401,3 tonna , meva 35300,2 tonna yetishtirildi.

1-jadval.

Xo'jalik toifalari bo'yicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish yilning yanvar-sentabr)

	Tonna	O'sish sura'ti,foizda	Tonna	O'sish sura'ti,foizda	Tonna	O'sish sura'ti,foizda
Jami don	73184,4	100,8	2107,4	213,1	3043,6	163,1
Kartoshka	6412,9	61,8	14385,8	134	2	0,0
Sabzavotlar	76412,1	108,2	73959,2	107,1	30	0,0
Poliz	12968,5	100	4003,2	152,4	0,0	0,0
Mevalar va rezavorlar	16710,3	103,6	18529,6	103,1	60,3	32,6
Uzum	301,5	106,9	1817	101,7	2	0,0

Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishda dehqon xo'jaliklarining salmogi yuqori bo'lmoqda, Jumaladan jami yetishtirilgan kartoshkaning 69,2%, sabzavotning 49,2%, poliz mahsulotlarining 23,6%, uzumning 85,7% va mevaning 52,5 % ular hissasiga to'g'ri keladi.2024-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan jami sabzavot 150401,3 tonna , meva 35300,2 tonna yetishtirildi.Tumanimiz o'zining yer resurslari va iqlimi bilan issiqxona biznesi uchun qulay hududdir.Issiqxonalar sabzavotlar , o'simliklar va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda iqlim sharoitlarini nazorat qilish imkonini beradi. Issiqxona xo'jaligini muvaffaqiyatli yurutish uchun zarur infratuzilma ,ayniqsa,suv ta'minoti ,elektr energiyasi va transport tizimlarini yaxshilash zarur.Tumanimizda issiqxona xo'jaligi kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun davlat tomonidan kichik fermerlarga va tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar berildi.Tumanimizda yengil sanoatni rivojlantirish uchun ham chora tadbirlar o'tkazilmoqda.

Xususan tumanimizda yengil sanoatni rivojlantirish uchun imkoniyatlar bor. Jumladan,"Xayotbaxsh " mahallasi xududidagi to'qimachilikka ixtisoslashgan

kichik sanoat zonasida 55 gektar yerda 10 ta lotlarda tekstil va to'qimachilik ishlab chiqarish, matolarni bo'yash ,tayyor trikotaj maxsulotlari ishlab chiqarish xamda 5000 nafardan ziyod ish o'rni yaratish imkoniyati bor.Tumanimizda barcha sohalar tez rivojlanib bormoqda. Buning uchun tumanimizda barcha shart-sharoitlar mavjud .

Xulosa va Takliflar : Shuni xulosa qilib aytish mumkinki, Paxtabod tumanida yildan yilga agrosanoat majmuasi rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, yengil sanoatga doir songgi yillarda juda ko'p korxonalar ishga tushurildi.Bu korxonalar ishga tushurilishi natijasida bosh turgan joylar korxonalar bilan band bo'ldi va aholi ish bilan ta'minlandi. Aholini bandligini ta'minlashda yana bir loyiha "Navbaxor mahallasida "2U" MCHJ tomonidan umumiy qiymati 28,5 mln. Dollorlik agrosanoat klasterini tashkil etish loyihasini amalga oshirish natijasida 150 ta doimiy, 1200 ta mavsumiy ish o'rni yaratish imkoni bor.Bu imkoniyatlardan to'laligicha foydalanilsa tumanimizda aholi bandligi ta'minlanadi va agrosanoat ham rivojlanib boradi. Tumaniz rivojlanib borishi uchun barcha shart- sharoitlar yaratilgan. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, tumanimizda aholi bandligini ta'minlash uchun aholiga foizsiz kreditlar berilmoqda. Berilgan kreditlardan aholi foydalanib, issiqxona, tikuv sexlari, parrandachilik fabrikasi, chorva mollarini boqib ko'paytirish intensiv usulda qo'yilishi kerak.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Sarikulov M. O, Olimov O. B SWOT ANALYSIS OF PAKHTAOBOD DISTRICT, MAIN MACROECONOMIC INDICATORS AND AGRICULTURAL PRODUCTION VOLUME ANALYSIS. JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal VOLUME 9, ISSUE 2, Feb. -2023
2. Department of macroeconomics of Pakhtaabad district government.
3. Hakimova M., Macroeconomics, T., 1997.
4. Law of the Republic of Uzbekistan. About the farm. August 26, 2004.
5. Maisak O. FROM. SWOT analysis: object, factors, strategies. The problem of finding connections between factors // Caspian magazine: Management and high technologies. - 2013. - No. 1 (21).